

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING YUQORI O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASH JARAYONLARI

Xudayberganova Jayron Odilbek qizi

Toshkent Amaliy fanlar Universiteti, magistr

E-mail: Xudoyberganovajayron@gmail.com

+998909047066

ANNOTATION

Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash jarayonlari tahlil qilinadi. Unda makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish, investitsiyalarni jalgan qilish, sanoat va qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning natijalari va ularning mamlakatning barqaror taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston iqtisodiyoti, iqtisodiy o'sish, investitsiyalar, sanoat modernizatsiyasi, qishloq xo'jaligi, eksport salohiyati, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy islohotlar.

PROCESSES OF ENSURING HIGH GROWTH RATES OF THE UZBEKISTAN ECONOMY

Khudaiberganova Jayron Odilbek qizi

University of Tashkent Applied Sciences, master

E-mail: Xudoyberganovajayron@gmail.com

+998909047066

ANNOTATION

This article analyzes the processes of ensuring high growth rates of the Uzbek economy. It focuses on such areas as maintaining macroeconomic stability, attracting investments, modernizing industry and agriculture, increasing export potential, supporting small business and private entrepreneurship. It also highlights the results of economic reforms and their contribution to the sustainable development of the country.

Key words: Economy of Uzbekistan, economic growth, investments, industrial modernization, agriculture, export potential, small business, private entrepreneurship, macroeconomic stability, economic reforms.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida barqaror va yuqori o‘sish sur’atlariga erishish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, sanoat tarmoqlarini diversifikasiya qilish, investitsion muhitni yaxshilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy salohiyat izchil rivojlanmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda eksportni rag‘batlantirish orqali mamlakatning xalqaro iqtisodiy maydondagi o‘rni mustahkamlanmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotining yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash jarayonlari va ularni amalga oshirishda muhim omillar tahlil qilinadi.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlari bo‘yicha bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlar olib borgan. Xususan, iqtisodiy islohotlar, investitsion muhitni yaxshilash, sanoat va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlari, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hisobotlari, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) va Osiyo taraqqiyot banki (OTB) kabi xalqaro tashkilotlarning tahliliy materiallarida keng yoritilgan.[2]

Masalan, Jahon bankining 2023-yildagi "O‘zbekiston iqtisodiyoti sharhi" hisobotida mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy liberallashtirish siyosati va uning natijalari ijobjiy baholangan. Shu bilan birga, G‘arbiy Yevropa va Osiyo mamlakatlarida amalga oshirilgan islohot tajribalari O‘zbekiston uchun muhim taqqoslama asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mahalliy olimlardan A. Xolmatov, M. Abdullayev va N. Qurbanovlarning ilmiy ishlarida iqtisodiy o‘sishning ichki omillari, xususan, infratuzilma, ishchi kuchi sifati va institutsional muhitning o‘rni tahlil qilingan.

Bu adabiyotlar iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, davlat siyosatining samaradorligini baholash va kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashda ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularning natijalarini baholash maqsad qilingan. Bunda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Tahliliy-metodik yondashuv – O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha mavjud statistik ma'lumotlar, rasmiy hisobotlar va xalqaro tashkilotlarning sharhlari asosida chuqur tahlil o‘tkazildi.
2. Taqqoslash usuli – O‘zbekiston tajribasi boshqa rivojlanayotgan davlatlar bilan solishtirilib, o‘sishga olib keluvchi omillar aniqlab olindi.
3. Tendensiyalarni aniqlash – So‘nggi besh yillik davrdagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida iqtisodiy o‘sish dinamikasidagi tendensiyalar o‘rganildi.

4. Sotsiologik tahlil elementlari – Tadbirkorlar va iqtisodchilar o‘rtasida o‘tkazilgan intervyyular va ijtimoiy so‘rovlар natijalari hamda ularning iqtisodiy jarayonlarga bo‘lgan munosabatlari tahlil qilindi.

Ushbu metodologik yondashuvlar orqali O‘zbekiston iqtisodiyotining yuqori o‘sish sur’atlariga qanday omillar yordam berayotgani va bu jarayonlarni yanada takomillashtirish yo‘llari aniqlashga harakat qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa turdagи muammolarni hal qilishning asosiy yo‘li – bu milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va iqtisodiy o‘sishga erishishdan iboratdir. Bunday o‘sishni chuqur tahlil qilish uchun uning asosiy omillari – ishlab chiqarishdagi qo‘shilgan ulushlar tarkibi hamda yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishiga qo‘shilgan hissani o‘rganish zarur hisoblanadi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar orqali iqtisodiy barqarorlikka erishilmoqda. Xususan, makroiqtisodiy va moliyaviy muvozanat mustahkamlanmoqda, iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida muvozanat kuchaymoqda, bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan mexanizmlar shakllanmoqda hamda zarur infratuzilma tizimlari rivojlantirilmoqda.[3]

Iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minalash maqsadida mamlakatimizda bir qator strategik yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi. Bular qatoriga bozor islohotlarini tizimli tarzda amalga oshirish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy islohotlar olib borish, ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish, eksportga yo‘naltirilgan yangi tarmoq va korxonalarini tashkil etish, shuningdek, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan puxta siyosatni amalga oshirish kiradi.

Bugungi kunda nafaqat YaIM hajmining ortib borayotgani, balki uning tarkibiy tuzilmasining sifat jihatidan takomillashayotgani ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonni chuqur tushunish uchun YaIM o‘sishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar va tarmoqlarning ulushlari asosida tahlil o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

2022 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, yalpi ichki mahsulot tarkibida eng katta ulush xizmat ko‘rsatish sohalariga to‘g‘ri kelgan (41,5%). Sanoat 26,7%, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 25,1%, qurilish esa 6,7% ulush bilan iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari sifatida ajralib turmoqda.

1-jadval. Yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar tahlili[4]

Tarmoqlar	Qo‘silgan ulushlar tarkibi, %	YaIMning o‘sishiga qo‘sghan hissasi, %
	2021 yil	2022 yil

1. Yalpi ichki mahsulot (YaIM)	100	100
2. Sanoat	27,3	26,7
3. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	26,5	25,1
4. Qurilish	6,6	6,7
5. Xizmatlar:	39,6	41,5
- Savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari	6,8	7,0
- Tashish, saqlash, axborot va aloqa	7,0	7,0
- Boshqa xizmat tarmoqlari	25,8	27,5
6. Mahsulotlarga sof soliqlar	7,0	6,8

2-jadval. 2018–2022 yillarda aholi jon boshiga hisoblangan yalpi ichki mahsulot[5]

No	Yil	Aholi jon boshiga YAIM (joriy narxlarda, ming so‘m)	Aholi jon boshiga YAIMning o‘sish sur’atlari (%)
1	2018	12 945,7	103,7
2	2019	15 863,8	104,0
3	2020	17 688,5	100,1
4	2021	21 149,2	105,3
5	2022	24 919,7	103,5

“O‘zbekiston–2030” strategiyasining ikkinchi ustuvor yo‘nalishi mamlakat iqtisodiyoti o‘sishini jadallashtirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, u 17 ta asosiy maqsadni o‘z ichiga oladi.[6]

Bu yo‘nalishda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard AQSH dollariga, jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni esa 4 ming dollarga yetkazish ko‘zda tutilmoxda. Mazkur maqsadlarga erishish uchun investitsiya muhiti, bank sohasini modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zarurati yuzaga chiqadi. Shuningdek, monopoliyalarning bozor mexanizmlariga moslashtirilishi, xususiy sektor ulushining kengaytirilishi va tadbirkorlik faoliyatining faollashtirilishi ham strategik vazifalar sirasiga kiradi.

2023 yilda strategiyani amalda tatbiq etish jarayonida keng ko‘lamlı choratadbirlar ko‘rildi. Jumladan, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va turli sohalarda islohotlarni jadallashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

Bular uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning poydevorini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, 2023 yilda qabul qilingan qarorga ko'ra, 10 million so'mdan ortiq soliqqa oid huquqbazarliklar faqat sud qarori asosida jazolanishi belgilandi. Bu yondashuv, ayniqsa, kichik va o'rta tadbirkorlar uchun adolatli muhit yaratishda ahamiyatlidir. Biroqkratik to'siqlarning bartaraf etilishi ularning huquqiy himoyasini kuchaytiradi.[7]

2024 yil 1 yanvardan boshlab esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun hosil sug'urtasi mukofotining yarmi davlat tomonidan subsidiyalanadi. Bu esa iqlim o'zgarishidan zarar ko'radigan fermerlar uchun moliyaviy kafolat yaratadi va tarmoqning barqarorligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, izlanish va rivojlanish (R&D) markazlariga qator soliq imtiyozlari berilib, ular mol-mulk va yer soliqlarini atigi 1 foiz stavkada to'laydilar. Bu ularning moliyaviy yukini kamaytirib, ilmiy faoliyatni rag'batlantiradi. Shuningdek, ularning xodimlariga nisbatan ijtimoiy soliq stavkasi ham 1 foiz etib belgilangan, bu esa xodimlar moliyaviy holatini yaxshilaydi.

Turizm sohasida esa 2024 yil 1 yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) to'liq qaytarish mexanizmi joriy qilindi. Bu xorijiy sayyohlar uchun xarajatlarni kamaytiradi va ularni O'zbekistonda ko'proq mablag' sarflashga undaydi. Shuningdek, eksport xizmatlari uchun turoperatorlarga soliq yengilliklari berilishi bu sohada raqobatbardoshlikni oshiradi.[8]

Transport infratuzilmasini takomillashtirish ham strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Xususan, mamlakatda 14 ta aviakompaniya faoliyat yuritmoqda, ularning 11 tasi xususiy hisoblanadi. Mahalliy parvozlar sonining ortishi ichki aloqalarni mustahkamsa, xalqaro reyslar sonining ko'payishi global hamkorliklarni kengaytiradi. 2024 yildan boshlab temir yo'l tariflarining bozor mexanizmlari asosida belgilanishi rejalashtirilgan.

Sanoat tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash doirasida charm-poyabzal va mo'ynachilik yo'nalishidagi eksport qiluvchi korxonalar uchun 2025 yil 1 yanvargacha bojxona yig'imlaridan ozod qilish choralarini belgilandi. Bu esa ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida 2023 yilda amalga oshirilgan islohotlar tadbirkorlikni rivojlantirish, turizm salohiyatini kengaytirish, transport infratuzilmasini takomillashtirish va sanoatni modernizatsiya qilishga qaratildi. Ular mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish, xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikka erishish va aholi farovonligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi.[9]

XULOSA

O'zbekiston iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash — mamlakatning uzoq muddatli rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik va aholining

farovonligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar, xususan, “O‘zbekiston–2030” strategiyasining amaliy bosqichlari, iqtisodiyotning barcha sohalarida muhim natijalarni yuzaga chiqarmoqda.

Yalpi ichki mahsulot hajmining barqaror o‘sib borayotgani, xizmatlar sohasi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va eksport salohiyatining mustahkamlanishi iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlariga aylangan. Investitsiyalarni jalb qilish, raqobatbardosh xususiy sektorni rivojlantirish, bank-moliya tizimini isloh qilish, “yashil iqtisodiyot” va raqamli transformatsiya jarayonlari orqali barqaror va inklyuziv o‘sishga zamin yaratilmoqda.

Shuningdek, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlar uchun qulay va shaffof muhit yaratish, ilmiy-texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi chora-tadbirlar O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar va rivojlanish strategiyalari mamlakat iqtisodiy o‘sishining yuqori sur’atlarini uzoq muddatli istiqbolda ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa xalq farovonligining yuksalishi va O‘zbekistonning global iqtisodiy maydondagi o‘rnining mustahkamlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “O‘zbekiston–2030” strategiyasi (rasmiy hujjat). www.lex.uz
2. Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). *O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati* (2022-yil yakunlari bo‘yicha hisobot). www.stat.uz
3. Karimov, I. A. (1997). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: O‘zbekiston.
4. Jalilov, N., & Xo‘jayev, N. (2021). *Makroiqtisodiyot asoslari*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
5. Xodjayev, B., & Turaev, B. (2020). *Iqtisodiy o‘sish va makroiqtisodiy barqarorlik muammolari*. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar universiteti nashriyoti.
6. "Ekonomika i sotsium" ilmiy jurnali. (2023). *O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari*, №5(108)-2. www.iupr.ru
7. UNDP Uzbekistan. (2022). *Green Economy and Sustainable Development in Uzbekistan*. www.uz.undp.org
8. World Bank. (2023). *Uzbekistan Economic Update – Towards Inclusive Growth*. www.worldbank.org
9. IMF. (2022). *Republic of Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2022 Article IV Mission*. www.imf.org